

## O‘ZBEK ADABIYOTIDA VATANPARVARLIK G‘OYALARI

**Islomova Barno Umurovna**

Jizzax politexnika instituti akademik litseyi  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada Vatanni sevish, unga munosib farzand bo‘lish ulug‘langan. Adabiyotimizda Vatan va vatanparvarlik g‘oyalari turli adiblarning sher‘lari va maqolasi orqali qanday ifodalanganligi yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Vatan tuyg‘usi, vatanparvarlik g‘oyasi, yuksak axloqiylik ziynati, ziyolilik ruhida tarbiyalash, erksevarlik g‘oyasi, hasbi hol she‘rlar.*

***Ko‘hna tol beshikdan boshlangan olam, Senga iddaolar qilmay sevaman,  
Bir kuni singlim deb, bir kuni onam-Vatan kimligingni bilmay sevaman.***

*(Muhammad Yusuf)*

Vatan, vatanparvarlik haqida tushunchalar va g‘oyalar bizga ona sutimiz bilan kirib kelgan. Inson tug‘ilguniga qadar ona qornida ulg‘ayadi, tug‘ilgandan so‘ng esa Vatanida o‘tib-ulg‘ayadi. Shining uchun ham VATANni onaga qiyos etishadi. Ona bolasi uchun har narsaga tayyor, Vatan ham o‘z farzandi uchun barcha ezguliklarga tayyor. Vatan hissini qalbdan tuyib borar ekanmiz, har doim uni sevishni barilla aytaversak, qadri ketgandek bo‘laveradi. Buyuk adabiyotshunos olim, tanqidchi Ozod Sharafiddinov o‘zining. “O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasida ham shunga yaqin fikrlarini quyidagicha bildirib o‘tadi: “Vatan muhabbati ham shunday: u hammaga ko‘z-ko‘z qilinmaydi, u to‘g‘risida tantanavor e‘lonlar chop etilmaydi, har muyulishda odam ko‘kragiga urib, Vatanga oshiqiligini pisanda

qilmaydi. Madaniyatning yuksak pog‘onalariga ko‘tarilgan jamiyatlarda odamlar o‘z Vatanlariga muhabbatni shovqin-suron ko‘tarmay, ayyuhannos solmay, tamagirliksiz, bepisanda, maqtanchoqliksiz amalga oshiradilar. Vatanga muhabbat bozorga solinadigan matoh emas, balki inson qalbining to‘rida gard yuqtirmay pokiza saqlanadigan eng nafis, eng inja bir tuyg‘udir. Uning to‘g‘risida huda-behuda jar solaversang, har kuni amalda emas, og‘izda “namoyon” etaversang, bu tuyg‘uning muqaddasligi qolmaydi. Kishining bir qulog‘idan kirib, ikkinchi qulog‘idan chiqib ketaveradigan jo‘ngina bir jumlagi aylanib qoladi”.<sup>5</sup>

Ozod Sharafiddinovning “O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasini tez-tez o‘qib turaman. Olimning har bir aytgan fikrlaridan to‘lqinlanib boraveraman. Bu oqilona so‘zlar bekorga aytilmaganiga xursand bo‘laman. Vatan haqida so‘zimizni davom ettirsak, o‘zbek pedagogikasiga katta hissa qo‘shgan, taniqli adabiyot namoyandasi Abdulla Avloniy o‘zining “Vatanni suymak” asarida Vatan haqida quyidagilarni yozib o‘tgan: “... har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan joyini jonidan ortiq suyar. Hatto bu-Vatan hissi-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan-uyuridan ayrilsa, o‘z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas. Maishati talx bo‘lur, har vaqt dilining bir go‘shasida o‘z vatanining muhabbati turar”.<sup>6</sup>

Abdulla Avloniy axloqiy-ta’limiy asarlari bilan ozidan keyingi avlodni ezgulik, yuksak axloqiylik, ziyolilik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Uning “Maktab gulistoni” kitobidagi “Vatan” she’ridagi quyidagi jummalarga e’tibor qaratsak,

*Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,  
Har kim sening qadring bilmas-aqli pastdur...  
Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan!  
Javlon urib yashaydurgon xonamizsan!*

<sup>5</sup> 8-sing adabiyot. Toshkent-2014.105-sahifa

<sup>6</sup> A.Avloniy. Tanlangan asarlar, Ikki tomlik, “Ma’naviyat”, T-1998

Yuqoridagi satrlarni Vatan haqidagi madhiya desak, mubolag'a bo'lmas. She'rni o'qir ekanmiz, ona yurtning ko'rkam, ulug'vor manzarasi ko'z oldimizda chiziladi. Uning tuyg'usi yuraklarga g'urur soladi, insonlarni go'yo darddan xalos etadi. Uni sevmalik, qadriga yetmaslik, e'zozlamalik bizni tubanlik sari yetaklaydi, degan fikrlar namoyon bo'ladi.

Vatan mavzusida yozilgan she'r-u dostonlar juda ko'p. Ularda ona yurt madhiga aytilmagan sifatlar qolmagan go'yo. Lekin ona yurtga nisbatan Vatanjon deb murojaat qilgan, uni ardoqlagan shoir Anvar Obidjondir. Ertalab uyg'onganimizda onamizni qidirib, unga talpinamiz. Shoir ham xuddi shu yosh boladay "Uxlab uyg'onguncha xumor bo'laman" deydi, uning uchun Vatan ham tug'gan onasi singari qadrlil va sog'inchidir.

Vatan, ona yurt haqida yozilgan she'rlarining deyarli barchasi qo'shiqqa aylangan adibimiz Muhammad Yusufdir. "Vatan kimligingni bilmay sevaman" degan shoirning vatan haqidagi yurakdan aytgan har bir so'zi go'yo sizni sehrlab qo'yganday bo'ladi, yurtni qanday kuylamog'i lozimligini isbotlab berganday bo'ladi. Ularni eshitganingizda, albatta, biz ham jo'r bo'lib birga aytamiz. Xalqimizning bulbulzabon shoiri Muhammad Yusufning "Vatanim" she'rida jonajon yurtimizga ta'rifni quyidagi jummlalar bilan boshlaydi:

*Men dunyoni nima qildim,  
O'zing yorug' jahonim,  
O'zim xoqon,  
O'zim sulton,  
Yolg'izim,  
Yagonam deymi,  
Topingan koshonam deymi,  
O'zing mening ulug'lardan  
Ulug'imsan, Vatanim...*

She'rni to'liq o'qir ekansiz, keying misralarda shoir Vatanga "mehri ilig' imsan, ochilmagan qo'rig' imsan, cho'pon-cho'lig' imsan, to'qson olti urug' imsan, tishimdagi so'ligimsan, aytoilmagan dudug' imsan" deb chiroyli sifatlarni keltiradi.

Ona yurt, unga sodiqlik mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodida ham o'z aksini topgan. Shoirning "G' urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish" deb boshlanadigan mashhur ruboiysida vatanparvarlik va erksevarlik g'oyasini barilla kuylagan shoir musofirlik chog' larida yozgan boshqa bir ruboiysida:

*O'lsam yasamang munda mazorimni mening*

*Yuklab elting jismi figorimni mening.*

*O'tru chiqorib ahli diyorumni mening,*

*Ko'yida qo'yung tanni nizorimni mening<sup>7</sup>,*

- deydi, bu bilan shoir hayotinigina emas, balki qabrini ham diyori bilan bog' laydi, o'z tanasini ham begona tuproqda qolib ketishini istamayd.

Ulug' bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida so'z borar ekan, uning she'riyatida Vatan va unga bo'lgan ishq ko'p bor kuylandi. Hasbi hol shaklida yozilgan she'rlarida Vatan sog'inchi, uning hajrida yonish asosiy o'ringa chiqdi. Vatanidan ayrolik shoir nazarida o'z "xatolari'dan ekanini yozadi, nadomatlar chekadi:

*Tole'yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,*

*Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.*

*O'z yerin qo'yib, Hind sori yuzlandim,*

*Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.*

Zahiriddin Muhammad Bobur vatanidan uzoqda o'z saltanatiga asos slogan bo'lsa-da, hech qachon ona yurtidan ko'nglini uzolmadi, umr bo'yi unga intilib yashadi.

O'zbek adabiyotida vatan, ona yurt haqida turli davrlarda juda ko'p o'lmas asarlar yaratilgan. Ularni o'qib biz o'zimizning vatanimizdan, vatanimiz borligidan g'ururlanamiz.

<sup>7</sup> A.Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, III tom. T. "Fan", 1991

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI***

1. *A.Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, T. "Fan" -1991*
2. *A.Avloniy. Tanlangan asarlar, T. "Ma'naviyat" -1998*
3. *Z.M.Bobur. Tanlangan asarlar. T-1976*
4. *R.Orzibekov. O'zbek adabiyoti tarixi. T-2006*